



ULUG'BEK HAMDAMNING "TO'RTKO'CHA" ROMANIDA QAHRAMON VA SYUJET TALQINI

Kucharova Nurizar Ismoil qizi

ToshDO'TAU 4- kurs talabasi ko'charovanuri04@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola orqali Ulug'bek Hamdamning "To'rtko'cha" romanining badiiy xususiyatlari, xususan, asar realizmining o'ziga xosligi hamda qahramon tahlili bo'yicha mulohazalar bayon qilinadi. Asarning syujet qurilishi, xronotop, romaniy problema va bosh qahramon hatti-harakatlari turli rakurslardan turib tadqiq etiladi.*

Kalit so'zlar: *Ulug'bek Hamdam, "To'rtko'cha" romani, syujet, xronotop, bosh qahramon, talqin va tahlil.*

Аннотация: *В статье рассматриваются художественные особенности романа Улугбека Хамдама «Тўрткўча», («Перекресток»), в частности, своеобразие сюжета и анализ главного персонажа. С разных точек зрения исследуются сюжетная структура произведения, хронотоп, проблема романа и характеристики главного героя.*

Ключевые слова: *Улугбек Хамдам, роман «Тўрткўча» («Перекресток»), сюжет, хронотоп, главный герой, интерпретация и анализ.*

Abstract: *This article examines the artistic features of Ulugbek Khamdam's novel "Turtkucha" ("Crossroads"), specifically the unique plot and analysis of the main character. The work's plot structure, chronotope, the novel's problem, and the protagonist's characteristics are examined from various perspectives.*

Keywords: *Ulugbek Khamdam, novel "Turtkucha" ("Crossroads"), plot, chronotope, protagonist, interpretation, and analysis.*

KIRISH

Roman haqida so'z borganda, odatda, uning hajman kattaligi, hayotni keng ko'lamda tasvirlashi, qahramon hayotidan katta davrni olib, turli ijtimoiy munosabatlar bilan bog'lab talqin qilishi, ko'p va turfa kishilar taqdirlari orqali jamiyatning joriy yoki o'tmish holatini aks ettira olishi, murakkab va ko'p chiziqli syujetga ega bo'lishi kabi janr xususiyatlari qayd etiladi.

To'g'ri, bular aksariyat romanlarga xos, lekin janrni shulaming o'zi bilangina belgilash kamlik qiladi.

Sababi, hajmi qissadan uncha farq qilmaydigan yoki qisqa vaqt davomida kechuvchi voqealar qalamga olingan romanlar ham, bitta shaxs taqdiridan bahs etuvchi yoki bitta syujet chizig'iga ega romanlar ham bor. Shu sababli romanning belgilovchi xususiyatlari deb yana romaniy problema, romaniy qahramon va romaniy tafakkur ham ko'rsatiladi.[1, 379].



Bu tushunchalar bir-biriga uzviy bog'liq, bir-birini taqozo etadi. O'tgan yili nashr etilgan "To'rtko'cha" romani o'zbek adabiyotida o'ziga xos voqea bo'ldi. [2]. Biz mazkur asarni roman talablariga nechog'li javob berishi, syujet, xronotop, romaniy qahramon hamda romaniy problema nuqtai nazaridan ko'rib chiqishni maqsad qilganmiz.

Asosiy qism. Tahlillar. Roman inson taqdiri, uning jamiyat bilan munosabatining badiiy tadqiqi orqali olamu odam mohiyatini anglashga intiladiki, shuni romaniy problema deyiladi. Dunyoning yaxlitligi va mavjudlikning tub mohiyatini anglash roman problemi bo'lsa, qahramonning dunyo bilan ziddiyati o'sha muammoni hal qilish vositasidir [1. G. Lukach, 380]. Shu bois ham qahramon taqdiri va egallagan mavqeyi uning o'ziga nomuvofiqligi, M. Baxtin aytganidek, romanning markaziy mavzu-muammosi bo'lib keladi.[Quronov D. 2019. 381]

Ma'lumki, har bir ijodkor asar yozishidan ko'zlangan maqsad xalqining dardini o'z nuqtayi nazaridan atroflicha yoritish va jamiyat holatini o'z asarlarida aks ettirish. Jadidlarimizdan biri Cho'lpon shunday deydi: „Millatni uyg'otish – uyg'onganlarning vazifasi"[3, 314]. Bugungi o'zbek adabiyoti, o'zbek tanqidchiligida eng faol, serqirra, sermahsul ijodkor, adabiyotshunoslardan biri Ulug'bek Hamdamdir. Bir-biriga o'xshamagan, poetik tabiatiga ko'ra rang-barang asarlar bilan adabiy jarayonda faol ishtirok etib kelyapti.

Uning asarlari kitobxonlarga katta ma'naviy ozuqa bera olgan asarlar sifatida tan olindi. Chunki mustaqillik yillarida adib yaratgan she'rlar, hikoyalar, qissa va romanlar, adabiy-tanqidiy ishlar, ilmiy tadqiqotlar shunday javobga asos bo'la oladi.

Bunday deyishimizning sababi, uning nafaqat romanlar yozganida, balki ustozlar an'anasini davom ettirayotganligidadir. "To'rtko'cha" romani xronotopi mustaqillik avvalidan to kechagi kunimizgacha, qariyb 30-35 yillik katta bir davrning g'oyat ziddiyatli voqealarini qamrab oladi.

Asar voqealari 80-yillar o'rtasidan boshlanib 2017-yilgacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi. Muallif mazkur asarda "Muvozanat" romanida aytolmagan, aytish imkonini topolmagan dardlarini qog'ozga to'kib solgan. Shu sababli ham bu asarga "Muvozanat" romanining mantiqiy davomi deb qaraladi.[4]. Ushbu roman ham "To'rtko'cha" singari yo'l bilan boshlanadi. Biz "Muvozanat"dagi Yusuf obrazi bilan "To'rtko'cha"dagi O'lmasni, Amir bilan O'ktamni, Mirazim kabi bir qancha qahramonlarni bir-biri bilan bog'lasak bo'ladi. Qozoqboy Yo'ldosh Ulug'bek Hamdamning ushbu asariga shunday fikr bildirgan:

(Ulug'bek Hamdamning istisnosiz barcha bitiklarida millat ahlining buguni va ertasi uchun o'ta dolzarb bo'lgan muammolar muayyan insonlar taqdiri misolida haqqoniy tasvirlanadi. Yozuvchining navbatdagi romani "To'rtko'chani"ni ham millat ahlining holati haqida kuyinchaklik bilan yozilgan falsafiy-publitsistik asar, deyish mumkin.

Ulug'bek – hamisha ko'lamdor o'ylaydigan va jonachirlik bilan yozadigan yozuvchi. Roman bosh qahramoni O'lmas va uning atrofidagi personajlar bugunning muammolari



bilan yashayotgan, har birimiz kundalik turmushda necha bor duch keladigan yaxshiyomon holatlar og'ushida kun ko'rayotgan kishilar.

Aynan shu jihat hayotiylik darajasini oshirib, uni o'qirmanga yaqinlashtiradi. Asarda O'lmas, O'ktam, O'g'ilo, Zafar, Piri komil, Ochil va boshqa bir qator obrazlar tabiati va taqdiri juda ta'sirli tasvirlangan. Jamiyat va shaxs, ijtimoiy-siyosiy tuzum va alohida odam munosabatlari muayyan insonlar taqdiri misolida haqqoniy ko'rsatilgan.) [Йўлдош Қ.2006. 5]. Asar O'lmasning to'rtko'cha boshida turib qolgani bilan boshlanadi. Muammo ham shu yerda, bu to'rtko'cha qanday ko'chalar aslida? 1992-yilda Turkiyaga ta'lim olishga ketdi. Bu vaqtda davlatimiz mustaqil bo'lgan edi. Ulug'bek Hamdamning o'zi aytganidek, "To'satdan bo'lgan mustaqillik". Bu davrda korrupsiya, noqonuniy pul topish avj olgan pallaga etibor qaratilgan. Odamlar olayotgan oylik maoshlari o'zlarining ehtiyojlariga yetmasdan, qo'shimcha pul topish, uy olish maqsadida noqonuniy ishlar qilgan. Asarda Erali og'a va Sotvoldi qadimiy qo'lyozmalarni skaner qilib sotish orqali pul ishlashni O'lmasga taklif qiladi. Uning hayolidan shunday o'tdi. (Endi qarzimni qaytarishim kerak deb yurganimda bu yoqda bitta arzimadek tuyulgan ish uchun salkam bir uyning pulini taklif qilib turishibdi-ya. Tavbangdan ketay!... Nima, hamma sertushum ishlar vatanning ustidan bo'ladimi?... Uning boyliklarini sotish bilan amalga oshadimi?! Mana, otning kallasidek haq nimalar uchun to'lanar ekan!...) ["To'rtko'cha". 2024. 54-bet].

Jamiyatda odamlarga mehnatiga yarasha haq to'lanmas edi. Aholining bitta-yu bitta g'ami qorin to'ydirish bo'lib qoldi. Qishloq ahlining hattoki din deb yurgani vaqtinchalik bir taskin, ovunchoq va shaklbozlikdan boshqa narsa emas edi. Akasidek oydin insonning qalbiga ham haqiqiy din kirib bormagandek tuyulardi. Bunday jaholatdagi, ya'ni jaholat botqog'iga botgan jamiyat uchun har qanday din quruq shakldan boshqa narsa bo'lmaydi. (Koreys mehmon: "Siz - o'zbeklar nega abadiy yashaydigandek katta-katta imorat qurasizlar-u, ertaga o'ladigandek ko'p-ko'p ovqat yeysizlar?") ["To'rtko'cha". 2024. 309-bet] Abu Hurayra (r.a.) rivoyat qiladilar: Rasululloh sallallohu alayhi vasallam : "Kofir yetti ichagi to'lguncha yeydi, mo'min esa bitta ichagi to'lguncha yeydi." (Imom Buxoriy va Imom Muslim rivoyati) "...va ortiqcha sarf qilmaslikka harakat qil. Chunki Alloh ortiqcha sarf qiluvchilarni sevmaydi." [6. Qur'on, Isro surasi, 17:29]. Nuh alayhissalom 950 yil umr ko'rgan ekanlar. Kichkina chaylari bor ekan. Yotsalar oyoqlari chiqib turarkan. Qazo vaqti kelib, Azroil alayhissalom xabar berganlarida: "Umr shunchalik tez o'tishini bilganimda, ovora bo'lib bu chaylani qurmas edim", degan ekanlar. [7. 23] Biz musulmon bo'la turib bu so'zlarni unutib qo'yayapmiz. Haqsizlik bilan yuzini berkitib, birovlarining rizqini bemalol yeb yurganlar ko'paygan bir davrda Erali og'a ham foizga pul berib shulardan biriga aldanadi. Parlament tomonidan yozib tasdiqlangan qonunlar ishlamaganda ko'cha qonunlari ishga tushadi degandek O'lmas bilan hamkasbi Erali og'a bostirib Nazir degan kazzobnikiga boradi. O'lmas hayolan o'ziga (Namoz polvonlar shunday paydo bo'ladi. Robin Gudlar, Zorrolar, Data Tutashxialar shunday tug'iladi. Ularni jamiyatning o'zi yaratadi. Jamiyat odamlarning haqsizlikka qarshi norozilik kayfiyati maydonga



keltiradi) – dedi.[“To’rtko’cha”.2024.325-bet]. Bizda odamlarning haqsizlikni aytish hayoliga ham kelmas, kelsa ham aholi norozilik kayfiyatini bildirishdan qo’rqadi. Chunki bu amaldorlarga yoqmaydi. Xalqning asosiy dardi qorin to’ydirish xolos. Aslida esa bu olomon orasida zanjir ya’ni tovlamachilik zanjiri paydo bo’lgan edi. Erali og’ani Nazir, Nazirni Toshmat, Toshmatni yana bitta Eshmat... Oxiri yoq buning...

(Uzoq kuzatib, shu fikrga keldimki, dunyoni boshqarayotgan janoblarga ko’p narsadan xabardor kishilar kerak emas ekan. Ularga qo’y kabi yuvosh, qo’y kabi bo’ysunuvchan, qayerga boshlasa, indamay ketaveradigan olomon qulay ekan. Chunki bunday olomonni o’z ichidan - nafsidan chiqqan dushman bilan yo’q qilib yuborish oson kecharkan...) [“To’rtko’cha”.2024.353-bet]. Bu achinarli haqiqatni Ulug’bek Hamdamdan ancha yillar oldin Cho’lpon ham “Kecha va kunduz” asarida aytib o’tgan edi. (– Mening Fedyam, siz bilmaysiz, juda dovyurak narsa. Sartlar uni “Parpi to’ra” deyishadi... Bilasizmi, u o’zi ham sartlarni juda yaxshi ko’radi. Yuvosh, qo’yday xalq deydi. Qancha jabr ko’rsa, qiynalsa ham “xudo” deb tura beradi, deydi. Sartlarning shu dindorligini, ayniqsa, yaxshi ko’radi...) [“Kecha va kunduz”2019.179-bet] Jamiyatda haqini talab qila olmaydigan, qo’ymijoz inson doim bir chekkada jabr ko’rib qolib ketaveradi. Qo’rqoqlik ham asli shudir. Juratsizlik, har qanday holatga moslashuvchanlik, “shu ham bo’laveradi”, - degan so’zlar, o’zini hurmat qilmaslik, oqibatda insonning o’zligini yo’qotishiga va qaramlikka olib keladi.

(Qishloqdagi, chetdagi qo’shiqchi Otabek...Ammo-lekin unchalik mashhur bo’lmas-da odatda, aynan mana shundaylarning hirgoyisi ko’ngilga kirib boradi. Chunki ularning hayotiga hali hali katta pullaru shon-shuhrat aralashmagan, bas, ko’ngillari oq, tuyg’ulari pokiza, nolalari dardchil, samimiy bo’ladi. Natijada aytgan qo’shiqlari bo’g’zidan emas, hu-vv yuraklardan chiqadi). [„To’rtko’cha”.2024.299- bet]. So’nggi paytlarda ayrim she’rlar yuzaki, tuyg’usiz va ma’naviy yuksaklikdan yiroq bo’lib qolayotgani kuzatilmoqda. She’r faqat qofiya emas, balki qalb nafasi, ruh so’zi, tafakkur mevasidir. So’zda mas’uliyat bo’lishi kerak. O’quvchi sifatida she’r o’qiganimda undan bir tuyg’u olishni, fikrga cho’mishni istayman. Afsuski, ba’zi zamonaviy she’rlar faqat so’zlar o’yiniga aylanib qolgan. Bu esa she’riyatning asl mohiyatiga ziyon yetkazadi. Yozuvchilar, shoirlar har bir satr orqali qalblarga yo’l topishni istasa, she’rlarida mas’uliyatni chuqurroq his qilishlari kerak deb o’ylayman. Bugun ko’plab she’rlar fikrga emas, faqat shovqinga xizmat qilayotgandek. Yoshlar orasida ‘trend’ bo’lishi uchun yozilgan, lekin hech qanday ichki kuchga ega bo’lmagan she’rlar yosh avlod tafakkuriga ham salbiy ta’sir qilishi mumkin. She’rni chiroyli matn emas, balki ma’naviy ozuqa deb bilganimiz ma’qul. Adabiyotshunos olim Dilmurod Quronov she’r borasida shunday degan: (Сўнгни вақтларда назмбозлик касалига йўлиққанлар – жўн гапларни ҳам шеърга соладиган, энг ёмони, уларни “шеър” деб эълон қиладиганлар кўпайиб кетди. Буларнинг бахтига овоз кучайтиргичу фонограммалар замони келиб, истеъдоду диддан мосуво кўшиқчилар ҳам тўлиб тошди. Ўхшатмагунча учратмас, деганлари шу-да: булар наригилари битган маза-матрасиз шеърларни хориждан ўғирланган куйларга солиб, компьютерлар ёрдамида сайқаллаб, чунон “куйлай”



бошладиларки, тезда FM тўлқинларини забт этиб, қўл телефон “чип”ларини тўлдирдилар. Ана энди, қулоғидан “наушник” тушмайдиган, ҳар нени ундан таралаётган оҳангга мос муқом билан қиладиган “санъат шайдолари” шеърятни, санъатни қандай тушунишларини фаҳмлаб олаверинг!.. Ўтган йили университетда шеърлари машҳур хонандалар репертуаридан жой олган Аҳад Қажум билан учрашув бўлди. Ўшанда талаба қизлар дастхат олиш илинжида унинг ортидан югурганларини кўриб, шеърят ҳақидаги тасаввурлар нечоғлиқ қашшоқлашиб қолганини надомат билан ҳис қилдим.) [Қуронов, Дилмурод.2016.8, 23]. Yana bir misol. Bugungi kunda “Ko’k jiguli” qo’shig’i YouTube ilovasida 455 mln marta tomosha qilingan. Sayoz qo’shiqlar didni o’ldiradi. O’lgan did odamning ma’naviyatini pasaytiradi, va bunga erishadi.

Hozirgi kunda yoshlarimiz bemani betasir ishlar bilan chalg’ib qolgan. (Bu qo’shiq turkcha emas, o’zbekcha. Sizlarniki! Unda eshitinglar, bu qo’shiq she’rini o’zbek shoiri Cho’lpon yozgan! “Turkiston milliy sharqisi” deyiladi bizda. Oti ham bunday: “Go’zal Turkiston”.) [„To’rtko’cha”.2024.303-bet] O’z vatanining qo’shig’ini bilmaydi. Cho’lponday yozuvchilarimiz o’zga yurtida shunday qadrli ekan, nega o’z yurtidagilar sherlarini bilmaydi, tanimaydi? Bizdagilar yoshlarning ma’naviyatini yuksaltirib qo’yishdan qo’rqadi.

Bir joyda: (Qirg’iz og’ayni: Bizda chiroq o’chcha, ko’chaga chiqamiz, yig’ilishib parlamentga boramiz. - Parlamenting nimasi tag’in? - Sizdagi hokimiyat, bizdagi parlament bo’ladi. Parlamentga yetguncha mingtacha odam yig’ilamiz. Lekin yetib bormaymiz. Parlament darrov chiroqni beradi. Keyin izimizga qayatmiz. Zo’r-ku! - Bilmadim, zo’rmi-go’rmi, lekin qorong’ida o’tirmaymiz. - Chiroqni bermasachi? - Bermasa, parlamentni ag’daramiz. - Ag’daramiz? - Ha, ag’daramiz, qarab o’tiramizmi?.. Keyingi parlament saboq chiqaradi-da, chiroqni o’chirmaydigan bo’ladi..) [„To’rtko’cha”.2024.303-bet]. Bu ham millatning ijtimoiy ahvoli og’irligiga bir ishora qiladi. Jahon adabiyotining eng taniqli vakillaridan biri Frans Kafka “Jarayon” romanida shunday katta xulosa qilgan: (Albatta, qo’rquv – baxtsizlik, lekin jasurlik – baxt degani emas, baxt bu – qo’rquv qarshisida dovdirab qolmaslikdir). [9.233]. (Haqiqatsiz hayotni tasavvur etib bo’lmaydi. Ehtimol, haqiqat hayotning o’zidir). [O’sha asar, 233-bet] Albatta, yolg’on bor joyda barcha illatlar urchiydi. (Chindan nega biz o’zbeklar bunchalar qo’rqoq bo’lib qolganmiz?) Alber Kamyu adabiyotga qo’rquvni olib kirdi desak bo’ladi. Kamyu shunday deydi: (Yolg’on gapirmaslikni biladigan odam ozoddir. Inson qo’rqoqlar qurshovida bo’lsa, o’zini yolg’iz his etadi). [442-bet]. Qo’rquv bor joyda rivojlanish bo’lmaydi. G’arb qo’rquvni yengani uchun, Kamyuning gapiga quloq solgani uchun rivojlandi deya olamiz. (Nazarimda zamondoshlarimizning ko’pchiligi tuzukroq orzu qilishni ham bilmaydi. Ideallar haqida tasavvurga ham ega emas. Imoratini solib, unda to’yi va azasini o’tkazib olgan o’zbekning orzu-umidi ham, hayoti ham tugaydi). [„To’rtko’cha”.2024.303-bet]. Millatga achinishga bosh sabab nima o’zi? Birinchi sabab shuki, ishsizlikning ko’payishi, odamlarning pul topish maqsadida chet davlatga chiqib ketishidir. Biz bu holatni birgina “To’rtko’cha” asari bilan emas, balki Iqbol Mirzoning



“Bonu” romani orqali ham ko‘rganmiz.[10] Ishga yaroqli aholi o‘z yurtidan ish topolmay xorijda mardikorlik qilyapti. Bizda mardikorlik degan tushuncha yaqinda paydo bo‘lgan emas. Tarixdan, jadidlarimiz davridan, undan oldin ham bo‘lgan. Hamza Hakimzoda Niyoziyning qalamiga mansub “Peshonamiz tor ekan”, “Sog‘inib”, “Salom ayting” nomli she‘rlari bir-birini mazmunan to‘ldiruvchi va davom ettiruvchi turkum she‘rlar sirasiga kiradi. She‘rda mardikorlikka olingan yigitning jismoniy va ruhiy azoblaridan keyingi holati bayon qilinadi. Dastlabki “Peshonamiz tor ekan” she‘ri boshdan oxirigacha yuzboshining mardikor yigitga qaratilgan nutqidan iborat:

(Peshonamiz tor ekan,

Yozuqliklar bor ekan

Endi bilsak bu ishga

Jahl sababkor ekan.

Hoy pahlavon, tur qahramon,

Ay-da ishlaylik, tangri qo‘shmish, nishlaylik!

Keyingi “Sog‘inib” she‘ri esa yuqoridagi yuzboshiga javoban mardikor yigitning dard-hasratli nutqidan iborat:

Qattiq tegma manga muncha, yuzboshim,

Oquzma ko‘p g‘amim uzra ko‘z yoshim,

Yurak-bag‘rim o‘zi hadsiz ezilgan,

Yurt-u vatan, ellarimni sog‘inib.

“Salom ayting” deb nomlangan yana biri esa mana shu mardikorlik davrida vatanini sog‘inib yurgan boshqa bir yigit o‘z mahallasidan bo‘lgan sherigini yurtiga kuzatayotganda unga qarata iltijo ila aytilgan nutqidan iborat:

Ag‘o, sog‘ borsangiz, avval Dadamlarga salom ayting.

Yugurib chiqqan ul mushfiq Onamlarga salom ayting.

Ko‘zi qon hamshiram bilan Akamlarga salom ayting.

O‘pib peshonasin men-chun, Ukamlarga salom ayting.

Qo‘nu qo‘shnim, kichik-katta Ag‘omlarga salom ayting). [11, 45]

Ko‘rib turganimizdek, mazkur she‘rlar o‘quvchi tasavvurida xuddi dramatik asar singari sahnada ijro etilayotgandek tasavvur uyg‘otadi. Ijroviy lirikaga mansub ushbu asarlar 1914-yilga mansubligini hisobga olsak, davr ijtimoiy tabiatidagi hodisalar she‘r mavzusiga ko‘chganiga guvoh bo‘lamiz. (Doimiy mardikorchilik qilayotganlar soni bir necha millionga yetdi. Hatto ayrim mamlakatlarning aholisi shuncha chiqmaydi.) [„To‘rtko‘cha”.2024.420-bet]. SSSR tarqalganda bir necha davlatlar mustaqil bo‘ldi xolos. Shular orasida Latviya, Estoniya, Litva davlatlari ham bor edi. Estoniya aholisining soni 1 373 101 kishi, Latviya aholisi 4 mln, Litva aholisining soni 2mln 810 ming kishini tashkil etadi. 2013-yilda O‘zbekistonda mardikorlar soni 10 mln dan oshgan. "Mustaqil mardikorlar tashkiloti" rahbari Nuraddin Jumaniyozov O‘zbekistonda 10 milliondan ortiq mardikor bor, deb ishonadi. U avvalroq O‘zbekiston parlamentiga murojaat qilib, mardikorlar to‘g‘risidagi maxsus qonunni qabul qilishga chaqirgan. [12.]. Hisoblab ko‘rsak 3 ta davlatning aholisini qo‘shsak ham bizning mardikorlarimizdan



kam ekan. Afsuski, bu raqamlar juda achinarli. Bu 2013-yilgi holat. Quddus A'zamning ma'lum qilishicha, 2019-yilgi holatda O'zbekistondan chiqqan mardikorlar soni 2,5 million, hatto, norasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 3 milliondan ortgan. "Ertaga 5 million bo'lamiz, keyin butun dunyoga shu bilan tanilamiz", deydi jurnalist. Bunga nisbatan "Faqat mardikor yetishtirib beramiz", deydi Maqsuda Vorisova. [13]. 2020-yil 6-iyunda Xalqaro press-klubning Farg'ona viloyatiga bag'ishlangan sessiyasida bandlik va mehnat munosabatlari vaziri Nozim Husanov O'zbekistondagi ishsizlik darajasi haqida berilgan savolga javob qaytargan va ishsizlar soni qariyb 2 millionga yaqinlashganini aytgandi. 2-iyulda O'zbekistonda 2020-yilning Ikkinchi choragi yakunlariga ko'ra, ishsizlik darajasi 15 foizgacha ko'tarilgani xabar qilindi. [14]

Romanda yana soxta va haqiqiy hojilar o'rtasidagi tafovut ham fosh etiladi (323-bet). Yana bir muammo: laganbardorlik, maddohlik. (Korrupsiya degani butun boshli ideologiyaga aylandimi, nima balo?!). [384-bet]. Buyurtma asar! To'g'ri tarixda ham Leonid Brejnev o'z nomidan kitoblar yozishni Moskva yozuvchilariga va jurnalistlariga buyurgan. Bu illatdan o'zbeklar ham chetlab o'tmadi. Shohlar davridan bizgacha yetgan bu masala endi prezidentlarga singdi. O'lmas Ibod Kalonovday prezidentga asar yozsay-u, moddiy taqdirlansa, medal olsa buning nimasi yomon? Balki shu bilan hayoti yaxshilanib ham ketar...[333-bet]. Odil Yoqubovning "Ko'hna dunyo" romanida ham podshohga yaqinlashish uchun maddohlik qilgan shoir lavhasi bor. (Beruniy bunday marosimlarni, sultonning lutfi karamiga sazovor bo'lgan kishilarga oltin oshatish marosimlarini avval ham ko'rgan, hatto oltinga tiqilib, o'lar holatga tushganlardan qo'rqulik, unda kishini zir titratguvchi pinhoni bir kuch bor edi!). [15, 315]. Albatta hammasining maqsadi oltin. Bu yerdagi oltin oshashi inkor qilib bo'lmaydigan mubolag'a. Podshohga yaltoqlik qiladiganlar doim o'ziga manfaat kutadi. (Korrupsiya degani butun boshli ideologiyaga aylandimi, nima balo?!). [„To'rtko'cha".2024.236-bet] Korrupsiya o'z-o'zidan ijobiy yoki tizimli g'oya emas, balki jamiyatda halokatli ta'sir qiladigan illat. Ideologiyaga aylanish bu jamiyatning hayot tarziga singgan, uni hamma qabul qilgan, butun bir guruhning g'oyalar tizimi.

Biz tamagirlikni ideologiya darajasigacha olib kelibmizki, bugun rivojlangan davlatlar qatorida emasmiz. Abdulla Qahhor 1934-yilda "O'g'ri" hikoyasi bilan tamagirlikning oqibati nimaga olib kelishini isbotladi.

Singapur nima uchun qisqa vaqt ichida rivojlangan davlatlar safiga kirdi ? Singapurda tabiiy resurslar yo'q, ichimlik suvini boshqa davlatdan sotib oladi, aholisining soni 4,5 mln.

Bu shahar oroldan iborat. Tez fursatda rivojlanishiga sabab Singapur respublikasining prezidenti Li Kuan Yu birinchi navbatda korrupsiyani yo'q qildi. (U shunday deydi: "Mening oldimda ikkita yo'l turardi.

Birinchisi – o'g'irlik qilish, do'stlarim va qarindoshlarimni "Forbes" ro'yxatiga olib chiqish, ammo bunda o'z xalqimni quruq yerda qoldirgan bo'lardim. Ikkinchisi – o'z xalqimga xizmat qilish va mamlakatni dunyodagi eng yaxshi mamlakatlar o'ntaligiga kiritish. Men ikkinchisini tanladim...) [16, 44-bet].



Muxtasar aytganda, asarning oxiri ham O'lmasning to'rtko'cha boshiga kelib qolishi va uning o'ylari orqali yozuvchining yechimi bilan tugaydi.

Xulosa.

1. "To'rtko'cha" romani xronotopida bir millatga taalluqli, uning murakkab mustaqillika erishish asnosi, mustaqillikning tamal toshi qanday qo'yilgani va buning natijalari haqida badiiy umumlashmalar aks etadi.

2. Romanda nihoyatda ko'lamdor milliy fojealar aks etganki, bu problemalar (muammolar)ni keng badiiy mushohada qilinishi – janr maqomiga to'la mos keladi.

3. Bosh qahramon barcha romaniy problemalarning markazida, muammolar ichida harakat qiladi, muallif tarjimai holi bamisoli yurt taqdiri, uning bosib o'tgan yo'li bilan chambarchas bog'lanib ketadi.

4. Muallif asarini "shafqatsiz realizm" uslubida yozadi. Dalillash mahorati yuqori. Voqea-hodisalar va ularning dalillanishi hech shubha uyg'otmaydi.

5. Roman tili ravon, murakkab yoki tushunilishi qiyin so'zlardan holi. Realistik asar, bo'lib ham ko'z o'ngimizda ro'y bergan voqelar ta'sirchan uslubda bayon qilinadi.

6. Romanda monolog, dialoglardan unumli foydalanilgan, maqol va rivoyatlar syujet ma'nosni kuchaytirishga xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. T.: «NOSHJR» 2019. – 480 b.
2. Хамдам Улуғбек. "Тўрткўча". "Yangi asr avlodi". 2024. – 544 б.
3. Чўлпон. "Кеча ва Кундуз". Роман."Абадий барҳаёт асарлар" туркуми. – Т.: „Ilm-ziyo-zakovat". 2019. – 320 б.
4. Хамдам Улуғбек. Мувозанат. Тошкент. «Шарк». 2007. 234 б.
5. Йўлдош Қ. Ёниқ сўз. Т.: Yangi asr avlodi, 2006.- 336 б.
6. Манба: "Қуръони Карим". Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. Т.: "Чўлпон" нашриёти. 1992. – 496 б.
7. Рабғузий. "Қисаси Рабғузий". Т.; "Ёшлар нашриёт уйи". 2018. – 216 б.
8. Қуронов, Дилмурод Адабий ўйлар. Тошкент: «Turon zamin ziyo». 2016. -170 б.
9. Evrilish:hikoyalar va maktublar / Frans Kafka. Tarjimonlar E.Ernazarov va boshq. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – 256 b
10. Иқбол Мирзо. "Бону". Роман. Т.: "Шарқ". 2018. – 278 б
11. Улубек Хамдам. Ватан хакида кушик. Маколалар ва давра суҳбатлари. Т.: Академнашр. 2014. – 244 б.
12. [bbc.com>uzbek/lotin/2013/02/130208_latin_talking...](https://bbc.com/uzbek/lotin/2013/02/130208_latin_talking...)
13. Мақсуда Ворисова. Ишсизлик ва мардикорлар хақида. qalampir.uz>news/uzbekiston-dunega-3-million-...
14. Нозим Хуснов. [daryo.uz>2023/04/11/kambagallikni-qisqartirish-va...](https://daryo.uz)
<https://daryo.uz>.



15. Ёқубов О. Кўҳна дунё. Роман. Т.: «Sharq», 2004. – 344 б.
16. Li Kuan Yu. Aforizmlari (hikmatli so'zlari) T.: "Zamin Nashr". 2019. – 124 б.